
“Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlari amalda.

Bugungi kunda "Piyozchilik" MFYda keng ko‘lamdagi obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda.

“Obod xonadon, “Obod ko‘cha”, “Obod mahalla” mezonlari "Piyozchilik" mahallasining aholisini hayot tarzini o‘zgartirdi. Aholi xonadonlari, ko‘chalarning me‘moriy qiyofasi o‘zgardi, ko‘makka muhtoj oilalar har jihatdan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlandi.

Xususan, jami 9 ta ko‘chada “Obod ko‘cha” mezonini joriy etish va infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

"Piyozchilik" mahallasi bugungi kunda obod go‘shaga, ko‘rkam maskanga aylanib, namunaviy xonadon va ko‘chalar soni ortib bormoqda. Natijada esa odamlarimizning o‘z hayotiga bo‘lgan ishonchi yuksalib, yashashga, kelajakka bo‘lgan intilishi kuchaymoqda.

2024-03-25 08:08:50